European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE)
Volume 6 | Issue 4 | Apr - 2026 ISSN: 2795-8612

“Shajarayi Turk” Etnonimlarining Lingvistik Tahlili

Kultayeva Fazilat Baxtiyarovna
Termiz davlat univarsiteti o‘qituvchisi

Avazova Shohsanam Anvarovna
Termiz davlat univarsiteti talabasi

Annotatsiya: *Global o‘zgarishlar davrida millatning etnogenezini belgilovchi onomastik birliklarni tadqiq etish filologiya fanining dolzarb vazifalaridan biridir. Zero, til xalqning intellektual salohiyati va tarixiy dunyoqarashini aks ettiruvchi “lingvistik passport” hisoblanadi. Markaziy Osiyo onomastik xazinasini boyitishda XVII asr davlat arbobi va olimi Abul G‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari alohida o‘ringa ega. Mazkur asar shunchaki tarixiy xronologiya emas, balki turkiy xalqlar etnogenezini lingvistik metodologiya asosida yoritgan fundamental tadqiqotdir. Undagi 100 dan ortiq etnonimlar qadimgi sivilizatsiya ramzlari va turkiy tilning derivatsion imkoniyatlarini ko‘rsatuvchi lingvomadaniy yodgorliklardir. Muallif onomastik birliklarni mifologik qarashlar bilan emas, balki qat’iy mantiqiy-lisoniy asoslar va geografik joylashuv tamoyillari bilan izohlaydi. Bu tadqiqot nafaqat o‘zbek filologiyasi, balki jahon turkologiyasida Markaziy Osiyo xalqlari tarixini lingvistik rekonstruksiya qilishda yangi ufqlarni ochib beradi. Abulg‘ozixondan ikki tarixiy asar qoldi. Bittasi “Shajarayi tarokima” (1658-1661- yillar orasida yozilgan deb tahmin qilinadi), ikkinchi asari “Shajarayi turk” (1663-1664-yillarda yozilgan) nomi bilan mashhur.*

ARTICLEINFO

Article history:
Received 15 Feb 2026
Received in revised form
15 Mar 2026
Accepted 22 Apr 2026

Kalit So‘Zlar: Etnonim, onomastika, etnogenez, lingvistik tahlil, turkiy tillar, morfologiya, semantika, etimologiya, toponim, antroponim, Abulg‘oziy Bahodirxon.

Hosting by Innovatus Publishing Co. All rights reserved. © 2026

Kirish

“Shajarayi turk” ning yozilish sabablari haqida muallifning o‘zi bunday deydi: “Ammo bizning ota-aqalarimizning beparvoliqi va Xorazm xalqining bevuqufliqi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizning Abdullaxonning otalari birlan bizning otalarimizning ayrilgan yeridan to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduk, hech munosib kishi topmaduk, zarur boldi (va) ul sababdin o‘zimiz aytduk”. Asar qisqa muqaddima va to‘qqiz bobdan iborat [1]. M.Turdibekov Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida 1357 ta atoqli ot uchrashini qayd etib, shundan 880 ta antroponim, 286 ta toponim, 118 ta etnonim, 51 ta gidronim, 22 ta esa oronim ekanligini ko‘rsatgan. Tadqiqotchi S.N.Bo‘riyev Urgut tumani (Samarqand vil.) toponimiyasi tadqiqiga bag‘ishlangan dissertastiyasida 228 106

ta tog‘ va tog‘ tizmasi, 275 ta tepalik, 2 ta dovon, 17 ta dara, 63 ta jarlik, 21 ta qir, 4 ta qoya, 34 ta cho‘qqi, 1 ta etak kabi jami 523 ta oronimlar haqida ma’lumot bergan [2].

“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan ikki asosiy guruhga ajratiladi:

O‘z qatlamga mansub etnonimlar – asosan turkiy so‘zlar asosida shakllangan, tarixan o‘zbek tilida ishlatilgan va mahalliy muhitda avloddan avlodga o‘tib kelgan nomlar. Ular ko‘pincha ma’lum hududlar bilan bog‘liq bo‘lib, toponimik tizimda ham aks etadi. Bunday nomlar til tarixi, etnolingvistika va dialektologiya uchun muhim manba hisoblanadi. Shu sababli, etnonimlar nafaqat geografik joylarni ifodalaydi, balki xalqning o‘tmishi, tili, madaniyati va milliy o‘zligini aks ettiruvchi tarixiy xotira vositasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Asarda turkiy etnonimlar miqdor jihatdan kamroq bo‘lsa-da, mazmunan boy va lisoniy jihatdan muhimdir. Abul G‘oziy Bahodirxon ularning ma’nosini ko‘pincha o‘zi izohlaydi yoki mo‘g‘ul tilidagi muqobillari bilan qiyoslaydi [3]. Garchi ushbu nomlarning morfemik va fonetik qiyofasi bugungi o‘zbek tili me’yorlaridan biroz farq qilsa-da, ularni etimologik tahlil orqali tushunish mumkin. Masalan, **turg‘avut etnonimi** haqida asarda quyidagi ma’lumot berilgan: “Turg‘avutning ma’nisi” ori yoq temak bo‘lur. Mo‘g‘ul yurtining narig‘i chetini Salanga derlar. Bu ellar Salanganing ul yuzinda o‘ltururlar erdi. Oning uchun turg‘avut tedilar. Bu sharhdan ko‘rinadiki, etnonim geografik joy nomi asosida hosil qilingan bo‘lib, semantik asosini "nari yoq" (qarama-qarshi sohil) bildiruvchi ibora tashkil etgan. Yana bir guruh o‘z qatlamga mansub etnonimlar borki, ularning morfemik va fonetik tarkibida ba’zi o‘zgarishlar yuz bergan bo‘lsa-da, ularning semantik mazmunini anglash nisbatan oson. Quyida ana shunday etnonimlardan ayrimlariga to‘xtalamiz: **O‘n uyg‘ur, to‘qqiz uyg‘ur etnonimlari:** “O‘n soyda o‘lturg‘onni o‘n uyg‘ur derlar erdi [4]. To‘quz soyda o‘lturyunni to‘quz uyg‘ur derlar erdi. Bu yerda toponimik asos bilan shakllangan etnonimlar mavjud bo‘lib, ular yashash joylariga ko‘ra nomlangan. **Buzuq etnonimi:** “Siz uch ulug‘ingiz oltun yoy topib kelturdingiz tuqi oni buzub ulashtingiz. Sizlarning otingiz buzuq bo‘lsun, sizlardin bo‘lg‘an o‘g‘lonlarni ham, to qiyomatgacha buzuq tesunlar”. Bu yerda “buzuq” so‘zi “buzish” fe’lidan yasalib, tarixiy voqea bilan bog‘liq tarzda urug‘ nomi sifatida mustahkamlangan. **Xalaj etnonimi:** “Xon al feqirg‘a ot va ozuq berdi va mol berib: “Bu cherigga bormag‘il, teb qol, och tedi. Barcha qaloch eli shul kishining nasldin tururlar. Oni bu vaqtda xalaj deyurlar”. Bu etnonim og‘zaki buyruq asosida paydo bo‘lganligini ifodalaydi, ya’ni nom ijtimoiy-hayotiy hodisaga bevosita bog‘liq holda shakllangan.

Uch o‘q etnonimi: “Uch o‘q kelturgan uch kichik o‘g‘lini ve ondin bo‘lg‘anlarni bu kundin, to dunyo oxir bo‘lg‘uncha uch o‘q tesunlar. Bu etnonim aniq voqea bilan bog‘liq ravishda shakllangan bo‘lib, ramziy va tarixiy xotira belgisi sifatida e’tibor qaratiladi [5].

Turqaq eli: “So‘ngaki ma’lum ermas, qaysi turkdin erkani. Ma’nisi “soqchi” temak bo‘lur... Soqchilarning uyg‘oq erkonin uxdamay o‘lturg‘ani uxlag‘anig‘a oytur erdi: "Maning navbatim bo‘ldi. Emdi sen turqoq-teh. Ul sababdin podshohni saqlag‘an kishilarga turqaqlar derlar erdi. Bu nomning kelib chiqishi aniq emasligi qayd etilgan bo‘lsa-da, “saqchi” ya’ni “qo‘riqchi, nazoratchi ma’nosiga ega bo‘lgan so‘z bilan bog‘lanadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda Shajarayi turk asarida uchraydigan etnonimlarni tahlil qilishda kompleks lingvistik yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, matndan etnonimlar ajratib olinib, ularning strukturasi va kelib chiqishi tavsifiy (deskriptiv) usul asosida o‘rganildi. Shundan so‘ng etnonimlar o‘z qatlam va o‘zlashma qatlamga ajratilib, qiyosiy-tarixiy metod yordamida ularning turkiy, mo‘g‘ul va boshqa tillar bilan aloqadorligi tahlil qilindi.

Bundan tashqari, morfemik tahlil orqali etnonimlarning yasalish modellari (affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya) aniqlanib, semantik tahlil asosida ularning ma’no xususiyatlari ochib berildi. Tadqiqot jarayonida etnonimlarning antroponimik, toponimik, ijtimoiy va totemistik asoslari ham kontekstual tahlil orqali izohlandi.

Natijalar va muhokama

O‘zlashma qatlamga mansub etnonimlar – mo‘g‘il, arab, fors-tojik manbalaridan kirib kelgan, biroq o‘zbek tiliga ma’lum darajada moslashgan yoki singib ketgan nomlar. Asardagi o‘zlashma etnonimlarning eng katta qismini mo‘g‘ulcha nomlar tashkil etadi. Bu XII-XVII asrlardagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlar (mo‘g‘ullar istilosi va keyinchalik turklashishi) bilan bog‘liq. Xususiyati: Ushbu etnonimlarning aksariyati urug‘ boshliqlarining ismlari yoki muayyan bir tarixiy voqea natijasida berilgan laqablardan shakllangan [6].

O‘zlashma etnonimlarni 2 guruhga ajratish mumkin: a) Mo‘g‘ul tiliga mansubligi eslatilib, ma’nosi sharhlanlan etnonim (Do‘rman, Qiyot, Kilgit eli, Niyrun, Dug‘lat urug‘i). b) Mo‘g‘ul tiliga mansubligi eslarilmagan, biroq manosi sharxlangan etnonimlar (Barlos eli, Arlat eli, Kirayt)

1. Antroponimlarga (Kishi ismlariga) Asoslangan Etnonimlar. “Shajarayi turk” asarida turkiy qabila va urug‘larning kelib chiqishi ko‘pincha tarixiy shaxslar yoki muayyan voqealar bilan bog‘lanadi. Abu-l-G‘oziy Bahodirxon kishi ismlari va laqablaridan shakllangan etnonimlarga (antroponimlarga) alohida to‘xtalib o‘tgan. O‘zlashma qatlamda kishi ismlaridan hosil bo‘lgan etnonimlar yetakchi o‘rin tutadi.

Qo‘ng‘irot: Qo‘ng‘irot ismli shaxsdan tarqalgan urug‘. Asarda barcha qo‘ng‘irotlar uning avlodi ekani ta’kidlanadi. Asarda bu etnonim quyidagicha ta’riflanadi: "Cho‘rliq merganning bir o‘g‘li bor erdi, Qo‘nqirat otli [7]. Barcha Qo‘nqirat eli oning nasli turur" (Bahodirxon, 1992: 29)

Arlat: Asarda Ikilanchi o‘g‘li Arlat. Oning ma’nisi “onaning sevar o‘g‘li” temak bo‘lur. Arlat bir kishining oti turur. Oni onasi ko‘p sevar erdi. Oning uchun Arlat tedilar. Barcha arlat eli oning nasli turur”, deya ta’rif berilgan (Bahodirxon, 1992: 40).

Barlos: “Oning o‘g‘lining oti Erdamchi barlas. Barcha barlas eli muning nasli tururlar. Aqsoq Temur ushbu uruqdin erdi. Barlasning ma’nisi “sipahsolor” temak bo‘lur” deb ta’riflanadi (Bahodirxon, 1992: 46)

Mo‘g‘ul: Mo‘g‘ul etnonimi esa asarda “Asl lafzi mo‘g‘ul mungul turur. Avomning tili kelmaslikidin bora-bora mo‘g‘ul tedilar, mungning ma’nisin barcha tirik bilur “qayg‘u” ma’nisina turur, ulning ma’nisi “soda dil”, ya’ni “qayg‘uli soda” temak bo‘lur”, deb izohlanadi (Bahodirxon, 1992: 17)

Dug‘lat: Dug‘lom etnonimi esa asarda “Sakizlanchi o‘g‘lining oti Bo‘ljar dug‘lat. Mo‘g‘ul aqsaqni dug‘lat der. Bir oyoqi aqsaq erdi. Barcha dug‘lat uruqi oning nasli tururlar” deb izohlanadi (Bahodirxon, 1992: 46).

2. Yashash joyi, Kasb-kor va Ijtimoiy ahvolga nisbat berilgan etnonimlar. Ushbu guruhdagi nomlar etnosning ilk makoni yoki shug‘ullangan mashg‘uloti asosida shakllangan:

O‘rmanqit: O‘rmanqit etnonimi: “Bu elning yurtlari qaling yig‘ochning ichinda turur. Oning uchun O‘rmanqit ot qo‘ydilar. Bularning yurtlari qirg‘iz viloyatina yaqin bo‘lur. Chingizxong a boqindilar [8]. Bulardin boshqa taqi bir O‘rmanqit otli el bo‘lur” (Bahodirxon, 1992: 34).

Uyshin: Qadimgi turkiy qabilalardan biri bo‘lib, Xitoy manbalarida miloddan avvalgi III asrdan tilga olingan. “Bularning taqi so‘nggi mo‘g‘ul turur” (Bahodirxon, 1992: 41).

Kasb-korga oid nomlar: Etnonimlar tarkibida chorvachilik va ovchilik bilan bog‘liq Arabachi, Tevachi, Turqaq (podshohni saqlovchi/qo‘riqchi), Yilqili, Qo‘yli kabi nomlar uchraydi.

Tevachi: “Qari kechitdin, to Abulxon tog‘ining kun botishig acha iki tarafinda Ali eli o‘lturur erdi. Ondın, to tengizga quyg‘an yerigacha tevachi xalki o‘lturur erdi... Ani uch el derlar erdi: Xizir elining adaqlisi, Ali eli va tevachi. Munlarning ekinlarindin dahyak oldilar [9]. Tevachi birlan Ali elina mol ham solib oldilar” (Bahodirxon, 1992 127).

Ijtimoiy holatga oid: Boyovut: “oy” va “hukmron” tabaqa vakillarini ifodalash uchun ishlatilgan. Bayovut: “Bu el ko‘p uruq bo‘lurlar. Ammo yaxshisi va ko‘pragi iki uruq bo‘lur Birisina Jadayin bayovut va birisina Makrin bayovut derlar. Jadayin va Makrin tegan oqaturg‘an iki ulug‘ su bo‘lur. Ul sularning yaqosinda o‘ltururlar erdi” (Bahodirxon, 1992: 42).

3. Rang-tus va son-miqdor tushunchalariga asoslangan etnonimlar. Turli ranglar va ular haqidagi totem, mifologik, dininy, falsafiy tushunchalar o‘tmishda turkiy xalqlar hayotida alohida o‘ringa ega. Ranglar bilan birgalikda sonlar ham muhim ramziy ma’noga ega bo‘lgan.

Ranglar: Ko‘klanga (ko‘k rang), Sariq, Qizilbosh, Qizil oyoq, Kirayt (qora) kabi etnonimlar totemistik yoki tashqi belgilarga ishora qiladi [10].

Ko‘klanga (eli): «Ko‘klanga o‘n iki ming barot qo‘yi va ming iki yuz qazon qo‘yi soldilar» (Bahodirxon, 1992: 127)

Qizilbosh: Vazir xalqı qizilboshni qirg‘anda bir yetim bir vayron xonada yashurunub yotdi. Ababek sulton qatindin ruxsat olib qaytganda o‘lturg‘an xalq aytdilar “Munga ne uchun ruxsat berasiz? Bizni oz ko‘rib

qizilboshga qo‘shulmoqg‘a boraturur. Sulton aytdi “Qizilbosh o‘n ikki ming kishi turur. Uch yuz ortiq bo‘lsun. O‘zi kelgan kishiga yomonlik qilmoq nomardlarning ishi turur. Men o‘zumni xudoyga topshurubman”.

Sariq eli. “Onlar jonları birlan qabul qildilar taqi o‘n olti ming qo‘yni ersari, o‘n olti ming qo‘yni Xuroson saluri, sakiz ming qo‘yni taka va sariq va yovmut bermak bo‘ldilar” (Bahodirxon, 1992 127).

Sonlar: Uch el, Uch o‘q, O‘n uyg‘ur, To‘qqiz uyg‘ur, Do‘rman (to‘rt), Nayman (sakkiz) kabi nomlar qabilalar ittifoqi sonini yoki tarkibini bildiradi [11].

Uch el: “Amu suvining yoqasida ekin ekib o‘lturg‘an uch urug‘, turkman bor erdi. Ani uch el derlar erdi: Xizir elining adaqlisi, ali eli va tevachi”.

Nayman: Mo‘g‘ulcha “sakkiz” ma’nosini beradi. Nayman: “Nayman elining zikri. Bu qadim el turur. Boshlari va mollari ko‘p bo‘lur erdi”. Bu etnonim mo‘g‘ul tilida “sakkız” ma’nosini bildiradi. Naymanlar qadimgi sakkiz urug birlashmasini tashkil etgan. Mo‘g‘ullar 8 o‘g‘iz qabilasini qisqartirib nayman deb atagan”. Nayman elining zikri. Bu qadim el turur. Boshlari va mollari ko‘p bo‘lur erdi” (Bahodirxon, 1992: 36).

4. Totemistik tasavvurlar va Tamg‘alarga asoslangan etnonimlar. Urug‘chilik davridagi diniy qarashlar (hayvon yoki o‘simlikka sig‘inish) natijasida Bo‘ri, Boybo‘ri kabi nomlar yuzaga kelgan. Shuningdek, chorvadorlar o‘z mollarini ajratish uchun bosgan tamg‘alar va maxsus belgilar ham vaqt o‘tishi bilan qabila nomlariga asos bo‘lgan [12].

Qo‘ng‘irot-qadimgi turkiy qabila nomi (Vamberi, 1990:18). Qo‘ng‘irot etnonimining etimologiyasi haqida turli qarashlar mavjud. Ba’zilari uni Qo‘ng‘ir rangli otga bog‘lashgan, boshqalar esa rang nomi bo‘lgan qo‘ng‘ir leksemasiga daxldor deb hisoblashgan. Ammo ba’zi tadqiqotchilar fikricha, qo‘ng‘irot so‘zi qadimiy turkiy so‘z bo‘lib, u mo‘g‘ulcha xun kerey (qora qarg‘a) so‘ziga aloqadordir, u xun kareat xunkereyt xunkirat ko‘ngirat > qo‘ng‘irot evolyusiyasini boshidan kechirgan (Nafasov, 1988 262).

Etnonimlar lisoniy tabiatiga ko‘ra ikki yirik guruhga: sodda (tub) va yasama etnonimlarga bo‘linadi. Har bir guruh o‘ziga xos shakllanish tarixiga va lisoniy asosga ega.

1. Sodda (tub) etnonimlar. Sodda etnonimlar tarkibiy jihatdan morfemalarga bo‘linmaydigan, yaxlit o‘zakdan iborat bo‘lgan nomlardir**. Rang va sifat asosidagi nomlar:** Sariq, Oq, Ko‘k, Qora kabi leksemalar urug‘larning ajralib turuvchi belgilarini ifodalagan. Masalan, Sariq urug‘i yoki Qoranut tarkibidagi «qora» so‘zi tub o‘zak hisoblanadi. **Hayvon va qush (totem) nomlari:** Bo‘ri, Shunqor, Lochin kabi tub so‘zlar qadimiy turkiy qabilalarning muqaddas e’tiqodlari asosida shakllangan. **Shaxs ismlari (Antroponimik tub o‘zaklar**): Turk, Mo‘g‘ul, Tatar kabi nomlar tarixan tub o‘zak sifatida shakllanib, keyinchalik xalq nomlariga aylangan [13].

2. Yasama etnonimlar. Abu-l-G‘oziy Bahodirxon asarida yasama etnonimlar turkiy tillarning boy so‘z yasash imkoniyatlarini aks ettiruvchi asosiy qatlamni tashkil etadi. Ushbu nomlar asosan quyidagi uchta lisoniy usul orqali shakllangan:

1. Morfologik usul (Affiksatsiya). Turkiy tillarga xos bo‘lgan mahsuldor qo‘shimchalar yordamida urug‘ va qabila nomlari hosil qilingan. Bu usulda qabilaning mashg‘uloti, yashash joyi yoki o‘ziga xos belgilari asos qilib olingan:

-chi qo‘shimchasi: Ramstedt fikricha, chi qo‘shimchasining etnonim yasash jarayonidagi ma’nosi bilan -chi qo‘shimchasining hozirgi ma’nolari o‘rtasidagi muvozanatni, muvofiqlik yoki nomuvofiqlikni belgilash uchun har bir etnonimning atalishi va yasalishini tahlil qilish zarurati paydo bo‘ladi. Asosan kasb-hunar va ijtimoiy vazifaga ko‘ra guruhlarni nomlashda qo‘llangan. Misollar: Arabachi (araba haydovchilari), Tevachi (tuyachilar), Qo‘shchi (qo‘sh haydovchilari), Turqaq (soqchi/qorovullar) [14].

-li qo‘shimchasi: Ushbu qo‘shimcha bilan yasalgan etnonimlar «Shajarayi turk asarida ham bir qancha holatda uchraydi. Masalan, adaqli, yilqili, olali, oltinli, o‘choqli, qaniqli, qiniqli va boshqalar. Misollar: Yilqili (yilqisi ko‘p urug‘), Adaqli (piyoda yuruvchilar), Olali (ola rangli/belgili)

-man / -mon qo‘shimchasi: «Urug‘«, «jamoa» yoki «ulug‘lik» ma’nosini anglatuvchi qadimiy turkiy-mo‘g‘ul affiksi. Misollar: Turkman, Nayman (sakkiz urug‘li), Do‘rmon (to‘rt urug‘li).

-lik / -liq qo‘shimchasi: Yashash hududi yoki sharoitiga ko‘ra nomlashda ishtirok etgan. lik qo‘shimchasi eski o‘zbek tilida so‘zlarga -liq/-lig‘// -lik//-luk//-luq//-lug//-luk variantlarida qo‘shilgan. Qarluq, etnonimining hozirgi o‘zbek tilida qorluq// qarluq/qorlik //qarlug‘ shakllarida uchrashi o‘tmish davrlar merosidir. «Shajarayi turk» asarida ushbu qo‘shimcha asosida yasalgan etnonimlar deya qorluq va qishliq etnonimlarini keltirish mumkin. Misollar: Qorluq (qorli yer kishilari), Qishliq (qishloq/qishlash joyi vakillari).

2. Sintaktik usul (Kompozitsiya). Ikki yoki undan ortiq mustaqil leksemalarning birikishi natijasida murakkab (qo‘shma) etnonimlar vujudga kelgan. Bu jarayon etnik guruhlarning o‘zaro ittifoqi yoki ijtimoiy tabaqalanishini ifodalaydi. Dastlab, yagona mustaqil qabila yoki urug‘ bo‘lgan etnik guruhlar turli sabablar bilan tarixning ma’lum bosqichlarida birlashishi yoki aksincha, kichik guruhlarga, ya’ni mayda shoxobchalarga ajralib ketishi mumkin. Ana shunday jarayonda birlashgan etnik guruhlarning nomlari o‘zaro qo‘shilib, umumiy nomga aylanishi mumkin. «Shajarayi turk» asaridan keltirilgan misollar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Masalan, burchig‘in qiyot, jadayin bayovut, makrin bayovut, huroson soluri kabi etnonimlarning tarixi shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda etnik birliklarning bo‘linishi va tarmoqlanishi ularning birlashishidan kora kuchliroq bo‘lgan.

Son + Etnonim modeli: Qabilalar birlashmasining miqdoriy tarkibini bildiradi. Misollar: O‘n uyg‘ur, To‘qqiz uyg‘ur, Uchel, To‘rt do‘rmon. **Sifat (Rang) + Etnonim modeli:** Geografik yo‘nalish yoki ijtimoiy darajani ko‘rsatadi. Misollar: Qoraxitoy, Oqmang‘it, Qizilbosh, Sariy eli. Ijtimoiy-axloqiy birikmalar: Xalaj (qol va och — ijtimoiy hayotdagi holat belgisi sifatida) [15].

3. Lug‘aviy-ma’noviy konversiya. Bu usulda muayyan so‘z turkumi (sifat, son, ot) o‘zining birlamchi lug‘aviy ma’nosidan uzoqlashib, barqaror urug‘ nomiga aylanadi. Misollar: Nayman (Sakkiz/ismdan etnonim nomiga o‘tgan), Turqaq (qo‘riqchi, soqchi/tarqoq, birlashmagan sifatning etnonimga aylanishi), Buzuq (shikastlangan/bo‘lingan ma’nosidagi sifatning etnonimga aylanishi), Uyg‘ur (ittifoqchi/yopishgur ma’nosidagi sifatning xalq nomiga aylanishi).

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari asosida olib borilgan ushbu fundamental tadqiqot shuni qat’iy isbotlaydiki, turkiy etnonimiya tizimi shunchaki tarixiy nomlar majmuasi emas, balki millatning etnogenetik evolyutsiyasi va lisoniy tafakkurini o‘zida muhrlagan ulkan intellektual xazinadir. ushbu maqolada tadqiq etilgan har bir etnonim millatning “lisoniy xotirasi” bo‘lib, ular orqali biz o‘zligimizni, tariximizni va turkiy dunyoning ajralmas bir bo‘lagi ekanligimizni anglaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] Abulg‘oziy Bahodirxon, Shajarayi turk. Toshkent, Uzbekistan: Cho‘lpon, 1992.
[2] Mahmud Qoshg‘ariy, Devoni lug‘atit turk.
[3] N. Bejaliyev, O‘zbekiston etnonimlar tarixidan. Samarqand, Uzbekistan, 2004.
[4] K. Marqayev, “O‘zbek tili etnonimlarining lisoniy tadqiqi,” Ph.D. dissertation, Toshkent, Uzbekistan, 2007.
[5] T. Nafasov, O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. 1989.
[6] K. S. Abdullayeva, “Shajarayi turk asaridagi etnonimlarning grammatik tuzilishi va yasalishi,” Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Uzbekistan.
[7] X. Doniyorov, O‘zbek xalqining shajara va shevalari. Toshkent, Uzbekistan, 1968.
[8] A. Asqarov, O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. Toshkent, Uzbekistan, 2007.
[9] A. Nurmonov, O‘zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent, Uzbekistan, 2002.
[10] R. S. Madatovich and S. D. Maxamadiyevna, “The role of the system of education and family education in forming youth's worldview,” European Journal of Humanities and Educational Advancements, vol. 4, no. 4, pp. 128–130.
[11] R. Madatovich, “The role of civic responsibility in educating youth in a healthy spiritual environment in an information society,” Pubmedia Social Sciences and Humanities, vol. 3, no. 1, p. 6, 2025.
[12] R. S. Madatovich, “The role of preschool education and family education in the raising of a healthy balanced generation,” For Teachers, vol. 57, no. 4, pp. 520–523, 2024.
[13] R. O‘. SirojmuRodov, “Yoshlarda sog‘lom turmush tarzi rivojlanishida milliy va dunyoviy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishning ijtimoiy-falsafiy tahlil,” ACTA NUUz, vol. 1, no. 1.10.1, pp. 184–186, 2024.

[14] S. Ro‘zimurodov and Sh. Artikov, “Anakharsis – velikiy filosof iz Centralnoy Azii,” Innovatsii v tekhnologiyakh i obrazovanii, pp. 340–342, 2016.
[15] S. M. Ro‘zimurodov, Oilada yangicha iqtisodiy tafakkur madaniyati transformasiya: muammo va yechim (O‘zbekiston misolida). Qarshi, Uzbekistan: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi Qarshi Davlat Universiteti, 2024, p. 88.